

MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH

Mannanova Maftuna Fazliddin qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17526482>

Annotatsiya. Ushbu tezisdan moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ta'siri, aholining moliyaviy madaniyatini rivojlantirish zaruriyati hamda bu jarayonni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatining o'rni yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy madaniyat, investitsiya, byudjet, bank tizimi, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В данной тезисе освещается влияние повышения уровня финансовой грамотности на экономическую стабильность страны, необходимость развития финансовой культуры населения, роль государственной политики в поддержке этого процесса. Также на основе опыта развитых стран даны предложения по повышению финансовой грамотности в Узбекистане.

Ключевые слова: финансовая грамотность, экономическая стабильность, финансовая культура, инвестиции, бюджет, банковская система, цифровая экономика.

Bugungi globallashuv davrida iqtisodiy tizimning samarali faoliyat yuritishi aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning o'z moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish, jamg'arish, investitsiya qilish va qarz majburiyatlarini samarali rejalashtirish qobiliyatidir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Markaziy bank, Moliya vazirligi va ta'lim muassasalari tomonidan aholiga moliyaviy bilimlar berish, bank xizmatlaridan to'g'ri foydalanish va moliyaviy xatti-harakatlarni shakllantirish borasida qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Chunki, moliyaviy jihatdan savodli fuqarolar:

- ✓ o'z byudjetini oqilona boshqaradi;
- ✓ ortiqcha qarzдорlikka yo'l qo'ymaydi;
- ✓ jamg'arma va investitsiya madaniyatini shakllantiradi;
- ✓ rasmiy moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Bu esa mamlakat miqyosida bank tizimining barqarorligi, soliq tushumlarining oshishi va iqtisodiy faollikning kengayishiga olib keladi.

Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, aholining moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan davlatlarda (masalan, Germaniya, Yaponiya, AQSh) aholining o'rtacha jamg'arma ko'rsatkichi YaIMning 20–25 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 10–12 foiz atrofida bo'lib, bu moliyaviy bilimlarni keng targ'ib etish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Aholining onlayn to'lov tizimlari, elektron banking va kriptovalyuta bozoridagi xavfsiz ishtirokini ta'minlash uchun raqamli moliyaviy ta'limni rivojlantirish dolzarbdir.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

1. Maktab va oliy ta‘lim dasturlariga moliyaviy savodxonlik fanini kiritish.
2. Kattalar uchun onlayn moliyaviy trening va masofaviy kurslarni yo‘lga qo‘yish.
3. Aholi orasida bank xizmatlari, sarmoya turlari va budget yuritish madaniyatini targ‘ib etuvchi ommaviy axborot kampaniyalarini tashkil etish.
4. Raqamli to‘lov tizimlaridan xavfsiz foydalanish bo‘yicha milliy standartlar ishlab chiqish.
5. Yoshlar orasida “Moliyaviy savodxonlik haftaligi” kabi loyihalarni yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, moliyaviy savodxonlikning oshishi aholining iqtisodiy faoliyatini kengaytiradi, jamiyatda moliyaviy madaniyatni mustahkamlaydi va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari, 2024-yil.
2. Jahon banki: Financial Literacy and Inclusion Report, 2023.
3. OECD (2022). National Strategies for Financial Education.
4. Karimov Sh. “Moliyaviy madaniyat va barqarorlik”. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.